

IX-XI ASRLARDA ARAB MUSULMON DUNYOSIDA YOZILGAN MANTIQ ILMIGA OID ASARLAR

Ergashev Ozodbek Baxodurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

+998770736309

email: obek2155@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada IX–XI asrlar oraligʻida musulmon Sharqida mantiq ilmining rivojlanishi, bu boradagi mashhur mutafakkirlar – Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Xorazmiy va boshqa allomalarning ilmiy merosi yoritilgan. Ularning mantiqqa oid qarashlari, yunon merosining tarjima va sharhlari asosida yangi taʼlimotlarning shakllanishi, mantiq ilmining boshqa fanlarga, xususan, falsafa, ilohiyot, tibbiyot, huquq kabi sohalarga taʼsiri tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Mantiq, musulmon Sharqi, Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Aristotel, falsafa, ilm tarixi, Xorazmiy, yunon merosi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается развитие логики в арабо-мусульманском мире в IX–XI веках. Особое внимание уделено вкладу таких мыслителей, как Аль-Кинди, Аль-Фараби, Ибн Сина, Абу Абдуллах аль-Хорезми и других. Анализируются их труды по логике, влияние древнегреческой философии и формирование новых логических учений. Также исследуется значение логики для других наук, включая философию, теологию, медицину и право.

Ключевые слова: Логика, мусульманский Восток, Аль-Кинди, Аль-Фараби, Ибн Сина, Аристотель, философия, история науки, аль-Хорезми, греческое наследие.

ABSTRACT

This article explores the development of logic in the Muslim East during the 9th–11th centuries. It highlights the contributions of prominent scholars such as Al-Kindi, Al-Farabi, Ibn Sina, and Abu Abdullah al-Khwarizmi. The paper analyzes their logical works, the influence of Greek philosophical heritage, and the emergence of new logical doctrines. It also discusses the impact of logic on other disciplines, including philosophy, theology, medicine, and law.

Keywords: Logic, Muslim East, Al-Kindi, Al-Farabi, Ibn Sina, Aristotle, philosophy, history of science, al-Khwarizmi, Greek legacy.

KIRISH

Aynan IX va XI asrlar musulmon sharqida mantiq ilmi uchun eng sermahsul davrlardan bo'lgan. Shu davr oralig'ida musulmon sharqi allomalari tomonidan bir qancha mantiq ilmi rivojida ulkan hissa qo'shgan asarlar yozildi. Ayniqsa, Al-Kindiy, Al Forobiy, Ibn Sino, Ibn Hazm va shu kabi bir qancha olimlarning ijodi alohida diqqatga sazovordir. Oldingi asrlarda faqatgina mantiqqa oid yunon asarlari arab tiliga tarjima qilingan bo'lsa, keyinchalik ularga sharhlar ham yozildi va hatto alohida mantiq ilmiga bag'ishlangan yangi asarlar ham paydo bo'la boshladi.

Arab musulmon falsafasida birinchilardan bo'lib, mantiq ilmi bilan shug'ullangan faylasuf Al-Kindiy hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq Al-Kindiy (taxm. 800 y., Basra - 870 y.y., Bag'dod) – arab faylasufi va olimi. U qadimgi yunon, hind va forslarning falsafiy-mantiqiy merosini yaxshi bilgan, arab tilida falsafiy atamalarni ishlab chiqishda faol qatnashgan va o'z davrida birinchi bo'lib, fanlarni tasniflashga uringan. Al-Kindiyning dunyoqarashida mantiq ilmiga oid masalalar alohida o'rin egallaydi. U qadimgi yunon mutafakkirlari asarlarini tarjima qilib, ularga sharhlar yozgan. O'rta asrlarda yozilgan “Al-Fixrist” nomli bibliofafik asarda (muallifi Ibn an-Nadim, 995 y. vafot etgan).

Al-Kindiyning “Aristotelning o'nta kategoriyalari haqida”, “Kategoriyalar”dagi Aristotelning maqsadi haqida” nomli asarlari to'g'risida ma'lumot beriladi. An-Nadimning ta'kidlashicha, Al-Kindiy “Ikkinchi analitika”ga oid ikki risola yozgan: “Mantiqiy isbotlashga doir qisqacha risola” va “Isbotlash haqida risola”. Shuningdek, Al-Kindiy “Sofistlarning adashtirishlariga qarshi ogohlantirish” nomli risolasida Aristotelning “Sofistika”siga bo'lgan munosabatini bayon qiladi. Al-Kindiyning “She'r san'ati haqida” nomli asari Aristotelning “Poetika”siga kommentariya sifatida yozilgan. U Aristotelning “Ikkinchi analitika”sini Yevklid geometriyasi bilan solishtirish goyasini ilgari suradi. Mantiqiy isbotlashni tushunish va undan foydalanish uchun geometriyani o'rganish zarur, deb hisoblaydi¹.

Al-Kindiyning Aristotel mantig'ini sharhlashi va o'zi ham mantiq ilmiga oid bir qancha risolalar yozishi o'zidan keyingi faylasuflarning mantiqni tushunishlari uchun qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa mantiq fanining asosini tashkil qiluvchi xulosa chiqarish mavzusida risola yozganligi ham uning mantiq ilmi rivojiga qo'shgan katta hissasi hisoblanadi.

“Mantiq ilmining musulmon ilm faniga kirib kelishida yirik faylasuf, o'z zamonasida turli fanlarda peshqadam bo'lgan Al-Forobiyning xizmatlari beqiyosdir. Forobiy Aristotelning “Ritorika”, “Sofistika”, “Metafizika”, “Etika” kabi yirik asarlarini tushunarli shaklda sharhlab berdi, qiyin joylarini osonlik bilan tushuntirdi,

¹ M.Sharipov. D. Fayzixo'jayeva. Mantiq. Toshkent-2004. – B.23.

kamchiliklarini ko'rsatib berdi va Aristotel g'oyalarini tushunishga yordam beradigan bir qancha alohida asarlar yozdi.

Forobiyda mantiqiy bilimlar sistemasi "Isoguvchi" (Kirish), "Maqulot" (Kategoriya), "Ibora" (Hukm), "Qiyos" (Sillogizm, Birinchi analitika), "Burxon" (Isbotlash), "Ikkinchi analitika", "Jadal" (Dialektika), "Safsata" (Sofistik raddiya), "Xitoba" (Ritorika), "She'r" (Poetika) asarlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, Forobiy "Mantiq ilmiga kirish", "Aql haqida", "Shartli hukmlar", "Sillogizm" kabi asarlarida mantiq masalalarini ishlab chiqdi. "Ilmlar tasnifi" asarida ham mantiq ilmining predmeti, tuzilishi, ilmlar sistemasida tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritadi"².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

IX-XI asrlarda Sharq mamlakatlarida, xususan, O'rta Osiyoda falsafiy va mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishiga qadimgi yunon, hind mutafakkirlari asarlarining ko'plab tarjima qilinishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, IX-XI asrlar Yaqin va O'rta Sharqda mantiqiy ta'limotlarning rivojlanishidagi eng samarali davr hisoblanadi. Bu davrda mantiq ilmini o'rganishga bo'lgan talabning oshishi, birinchidan, tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi va tabiiy-ilmiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan; ikkinchidan, ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'g'ri, adolatli hal qilishga intilishning ortishi bilan va uchinchidan, eng muhimi, to'g'ri fikr yuritishga bo'lgan talabning chin fikrlarni xato fikrlardan ajratish zaruriyati bilan izohlanadi. Tarjimonlarning faoliyati natijasida IX asrga kelib yunon mantiq'i butun musulmon epistemologiyasi (bilish nazariyasi)ning asosi bo'lib qoldi. Mantiqni ular ba'zan "hunar" yoki "san'at" va ko'prok "ilm" deb atashgan. Mantiq ilm sifatida ma'lum bilimlarni yaratish, ularni asoslash va tasniflash sistemasini bergan. U "haqiqat"ni bilish yo'llari haqidagi ilm sifatida tarixchilarning va muhaddislarning bahslariga, musulmon huquqshunosligaga ham katta ta'sir ko'rsatgan³.

Hech shubha yo'qki Forobiyning ilmiy ishlari musulmon sharqida mantiq ilmining yuqori bosqichga ko'tarilishiga va Forobiydan keyin yashab o'tgan faylasuflarning ijodiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Forobiy katta ta'sir ko'rsatgan faylasuflardan biri Ibn Sinodir. Ibn Sinoning falsafa va mantiqqa bag'ishlab yozgan asarlari ham ushbu ilmlarning rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

Ibn Xaldun o'zining mashhur "Muqaddima" asarida shunday yozadi: U kitoblarning barchasi (mantiq fanining boshlang'ich asosi bo'lgan 9 kitob) islomda

² M.Sharipov. D. Fayzixo'jayeva. Mantiq. Toshkent-2004. – B.24.

³ M.Sharipov. D. Fayzixo'jayeva. Mantiq. Toshkent-2004. – B.24.

tarjima qilingan. Musulmon faylasuflari, masalan, Forobiy va Ibn Sino, keyinchalik esa Ispaniyalik faylasuf Ibn Rushd u kitoblarga izohlar va qisqartmalar yozishgan. Ibn Sino yettita fanni o'z ichiga olgan "Ash shifo asarini ham yozgan"⁴.

Ibn Sino to'rt yuzdan ortiq asarlar muallifidir. Bu asarlar ilmning turli sohalariga oid bo'lib, ulardan bir yuz ellikdan ortig'i falsafa va mantiq masalalariga bag'ishlangan. Bular orasida falsafa va mantiq fanining barcha masalalarini izchil ravishda o'z ichiga olgan asari – "Kitob ash-shifo"dir. "Kitob ash-shifo"ning mantiqqa oid qismi 9 bo'lakdan iborat bo'lib, ularning nomlanishi va tartibi Forobiyniki kabidir. Mutafakkirning bu asari mantiq sohasidagi barcha ilmlar asosida vujudga kelgan bo'lib, unda mantiqqa oid masalalar to'liq qamrab olingan.

Ibn Sinoning "Ishorat va tanbihot", "An-Najot", "Donishnoma" asarlarida ham falsafa va mantiqqa oid masalalar bayon etiladi. Mutafakkir mantiq ilmini barcha ilmlarning muqaddimasi, ularni egallashning zarur sharti sifatida talqin etadi. Ibn Sino "Donishnoma" asarida qabul qilingan tartibni buzgan holda, avval mantiq asoslarini, ikkinchi o'rinda metafizikani, so'ng boshqa fanlarni bayon qiladi. U asosan Aristotel va Forobiyning mantiqiy ta'limotlarini davom ettirgan bo'lsa-da, ko'p masalalarda mustaqil yo'l tutadi. Ibn Sino mantiq fanini ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni keltirib chiqarish, ularni bir-biridan farq qilish, chin va xato bilimlar, ularning turlarini o'rganuvchi fan yoki nazariy san'atdir, deb ta'riflaydi. Mantiq ilmi obyektiv olamni bilish uchun xizmat qiladi, bilish esa real predmetlarni, avvalo, sezgilar orqali aks ettirish, so'ng aqliy, mavhum bilishga asoslanadi⁵.

IX-X asrlarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yahyo ibn Ali Abu Sulaymon, Abu Xayyan kabilar Forobiyning mantiq, sohasidagi g'oyalarini davom ettirdilar. Ayniqsa, Forobiy falsafasi va mantiq'i "Ixxon as-Safo" – "Sof birodarlar"ning ta'limotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ular ham Forobiy kabi, "Bilim - bu bilinayotgan narsaning biluvchining jonidagi obrazidir", deb ta'kidlashgan.

Sof birodarlar"ning "Maktublar"ida: "Jon bilinayotgan narsalarning shaklini sezgilar vositasida, dalillar vositasida, fikrlash va kuzatish vositasida qabul qiladi", deb yozilgan. Aytish mumkinki, ular bilish bosqichlari va ular o'rtasidagi aloqadorlikni to'g'ri tushunishgan⁶.

O'z davrining qomusiy yirik olimi hisoblangan Roziy ham o'zining mantiqqa oid bir qancha risolalari orqali ushbu fan rivojiga sezilarli hissa qo'shdi.

Riyoziyotni istisno etganda, Roziy tabiatshunoslik va ijtimoiy sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan.

⁴ Ibn Khaldun. Al Muqaddimah. Princeton University Press. 2015. – P.642.

⁵ M.Sharipov. D. Fayzixo'jayeva. Mantiq. Toshkent-2004. – B.27.

⁶ M.Sharipov. D. Fayzixo'jayeva. Mantiq. Toshkent-2004 25-bet

X asrga kelib mantiq ilmi falsafiy bilimlarning eng muhim qismiga aylanib qoldi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy (X asr)ning “Mafotih-al-ulum” (Ilmlar kalitlari) asaridagi fanlar klassifikatsiyasida mantiq ilmiga alohida o‘rin berilishi fikrimizning dalilidir. Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlarni “arab” va “arabcha bo‘lmagan”larga ajratadi. Arabcha bo‘lmagan ilmlar qatoriga falsafa, mantiq, tibbiyot, arifmetika, handasa, ilmi nujum, musiqa, mexanika, kimyolar kiradi. Xorazmiy mantiq ilmiga oid masalalarni to‘qqiz bobda bayon qiladi. Boblarning nomlanishi Forobiy va Ibn Sinolarniki kabidir. U mantiqiy ta’limot “Isoguvchi”ni bayon etishdan, o‘rganishdan boshlanishi kerak, “Isoguvchi” - bu kirish (yunon tilida eysagoge deb ataladi), deya yozadi. Xorazmiy Aristotel g‘oyasini davom ettirib, aniq narsalarning xossalarini belgilash uchun “individual” tushunchasini kiritadi. Xorazmiy “Sof birodarlar”ning mantiqqa oid g‘oyalarini rivojlantirib va uni Arastu falsafasi ruhiga yaqinlashtirib, individ masalasini birinchi o‘ringa olib chiqadi. “Shaxs-individ mantiq aslida u Zayd, Amr, bu kishi, u eshak, ot kabi (ma’noni anglatadi); uni, shuningdek, birlamchi tushuncha deyish ham mumkin”, - deb yozadi Xorazmiy. U bir tomondan, arab falsafasidagi aql bilan tushuniladigan birlamchi, ya’ni ko‘pgina ob’ektiv bir xil predmetlar uchun umumiy bo‘lgan tushunchalarni, ikkinchi tomondan, aql bilan tushuniladigan birlamchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalarni sharhlaydi. Xorazmiyning bu masalaga oid fikrlari mantiq ilmidagi jins va tur tushunchalarga, ularning nisbiy xarakteri va o‘zaro munosabatiga oiddir. Abu Abdulloh al-Xorazmiy mantiq masalalarini ko‘rib chiqishni so‘z va iboralarning o‘zaro munosabatini tahlil etishdan boshlaydi. Sharq mantiqshunoslari so‘zlarning ma’no anglatishiga ko‘ra, uch turini: so‘z o‘zining to‘liq mazmunini anglatadigan, so‘z o‘z mazmunining bir qismini anglatadigan, so‘z o‘z mazmunidan kelib chiqadigan narsani anglatadigan holatlarni farqlaganlar. Xorazmiy ham bu masalaga mufassal to‘xtalib, bu turlarni va ularning tushunchalardagi mantiqiy ma’nolarini ko‘rib o‘tadi. Bu bilan olim Yaqin va O‘rta Sharq mantiqshunoslari ilgari surgan tushunchalarning ma’no anglatishi haqidagi ta’limotini davom ettiradi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy Aristotel va Forobiyning tafakkur va til, mantiq va grammatika orasidagi bog‘liqlik g‘oyasini yanada rivojlantirdi. U mulohaza (hukm) masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi⁷.

“Abu Abdulloh Xorazmiy “Mafotih-al-ulum” (Ilmlar kalitlari) asaridagi fanlar tasnifida Mantiq ilmiga alohida o‘rin beradi. U ilmlarni arab va arabcha bo‘lmaganlarga ajratadi. Arabcha bo‘lmagan ilmlarga: Falsafa, Mantiq, Tibbiyot, Arifmetika, Handasa, Astronomiya, Musiqa, Mexanika, Kimyo kabilarni kiritadi.

⁷ M.Sharipov. D. Fayzixo‘jayeva. Mantiq. Toshkent-2004. – B.26.

Mantiq ilmiga oid masalalarni 9 bobda bayon qiladi. U mantiqiy ta'limotga oid boblarni Forobiy va Ibn Sinolarnikidek ataydi.

Mantiq ilmiga:

- aniq narsalarning xossalarini belgilash uchun "individual" tushunchasini kiritadi;

- soʻz va iboralarning oʻzaro munosabatini tahlil qiladi (soʻz oʻzining toʻliq mazmunini anglatadigan, soʻz oʻz mazmunining bir qismini anglatadigan, soʻz oʻz mazmunidan kelib chiqadigan narsani anglatishini bayon qiladi);

- tafakkur va til, mantiq va gramatika orasidagi bogʻliqlik gʻoyasini rivojlantirdi;

- hukm masalasini alohida tahlil qildi;

- sillogizmni xulosa chiqarishning eng muhim koʻrinishi va nazariy bilimlarni egallashdagi asosiy vosita deb bildi;

- sofistika, ritorika, poetika kabi sillogizm turlarini alohida boblarda talqin qildi⁸.

XI-XII asrlarda yashab ijod qilgan ulugʻ islom allomasi Abu Homid Gazzoliy ham bir qancha asarlarida falsafa va Mantiq masalalari haqida atroflicha ma'lumotlar yozadi. Jumlada u oʻzining "Al Munqiz min azzolal" asarida mantiq ilmi haqida quyidagilarni yozadi: Mantiq ilmlarida ham din ishlarini nafiyligi yoki isbot qiluvchi biror narsa mavjud boʻlmay, u dalillash yoʻllari, uning meʼzonlari, hujjat keltirish asoslari, shartlari va tarkiblari, fikr meʼyorlarining shartlari hamda ularni tartibga keltirish kabilarni oʻrganadi. Mantiqqa koʻra Ilm-biluvchi obyektning uning chegaralarini anglash orqali tasavvur etish yoki hujjat keltirish yoʻli bilan tasdiqlashdir.

XULOSA

IX–XI asrlar musulmon Sharqi mantiq ilmining shakllanishi va rivojida eng sermahsul va taʼsirchan davrlardan biri boʻlgan. Bu davrda mantiq faqatgina yunon tafakkurining tarjimai darajasida qolib ketmay, balki mahalliy olimlar tomonidan mustaqil ravishda rivojlantirildi, boyitildi va yangi gʻoyalar bilan toʻldirildi. Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Roziy va Abu Abdulloh al-Xorazmiy singari mutafakkirlar mantiqni faqat nazariy fan sifatida emas, balki ilmiy tafakkur, adolatli hukm chiqarish, haqiqatni anglash, bilimlar tizimini qurish va boshqa fanlarga asos boʻluvchi metodologik vosita sifatida talqin qildilar.

Ushbu davrda yunon mantiqining asosiy asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozildi va yangi, mustaqil mantiqiy risolalar yaratildi. Mantiq ilmi nafaqat falsafaning, balki kalom, fiqh, tabiiy fanlar va tibbiyot singari boshqa ilm

⁸ D.Fayzixoʻjayeva.Sh.Negmatova Mantiq tarixi va nazariyasi.- S-2021. – B.201.

sohalarining rivojlanishida ham muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Mantiq tafakkur madaniyatining ajralmas qismiga aylanib, bilimlar orasida asosiy o‘rin egalladi. Ayniqsa, mantiqiy isbot, sillogizm, tushuncha va hukm kabi masalalar ustida olib borilgan izchil tadqiqotlar, musulmon olamining ilmiy tafakkurida chuqur ildiz otib, keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini saqlab qoldi.

ADABIYOTLAR/LITERATURA/REFERENCES:

1. D.Fayzixo‘jayeva.Sh.Negmatova Mantiq tarixi va nazariyasi. – S.–2021, 252 bet
2. Sayyed Hossain Nasr, Oliver Leaman. History of Islamic philosophy.-Great Britain.: TJI Digital, Padston; Cornwall,2001.–2187 pages
3. M. Sharipov, D. Fayzixo‘jayeva. Mantiq –T.:2004. -216 bet
4. Ibn Khaldun. Al Muqaddimah. Princeton University Press. 2015. 1252 pages